

## **Marjondaraxt (*Sambucus nigra*)ning tabiatda tarqalishi, o'ziga xos xususiyatlari va tibbiyotdagi ahamiyati**

Muxlisa Muxiddin qizi Muxiddinova  
muxlisamuxiddinova@gmail.com  
Termiz davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qora marjondaraxt (*Sambucus nigra*) ning tabiatda tarqalishi, o'ziga xos xususiyatlari, tibbiyotda va xalq tabobatidagi ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qora marjondaraxt (*Sambucus nigra*), qizil marjondaraxt (*Sambucus racemosa*)

## ***Sambucus nigra*, its distribution in nature, its peculiarities and its importance in medicine**

Muhlisa Muhiddin qizi Muhiddinova  
muhlisamuxiddinova@gmail.com  
Termez State University

**Abstract:** This article describes the distribution of the Black Pearl (*Sambucus nigra*) in nature, its peculiarities, its importance in medicine and folk medicine.

**Keywords:** Black coral (*Sambucus nigra*), red coral (*Sambucus racemosa*)

O'simlik deganda, ko'z o'ngimizga o'zining ajoyib gullari va yashil barglari, shox-shabballari bilan tabiatga fayz kiritib turuvchi, qalam ahliga ilhom, bemorlarga shifo, barchaga kuch-quvvat, iliq kayfiyat bag'ishlovchi rang-barang o'simliklar olami keladi. Ma'lum bo'lishicha, eramizdan oldingi IV asrda Marg'ilon va So'g'diyona yerlarida ko'plab bog' va xiyobonlar bo'lib, ularda manzarali daraxt butalar, chiroyli ajoyib gullarni hamda boshqa o'simliklarni parvarish qilishgan. O'sha davrlardan boshlab boshqa mamlakatlardan xushmanzarali o'simliklarni keltirib o'stira boshlaganlar. Mana shunday xushmanzara o'simliklardan biri bu marjondaraxtidir.

Qora marjondaraxt (*Sambucus nigra*) *Бузина черная*. Marjondaraxt keng yaproqli o'rmonlarda, butalar orasida o'sadi.

U asosan Madeyra va Azor orollari, Tunis va Jazoir, Shimoliy Amerika, Turkiya, Eron, Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston, Ukraina, Moldava, Boltiqbo'yi mamlakatlari, ya Belarusiya, Yangi Zelandiya, Rossiya, Kavkaz va boshqa yerlarda

uchraydi. O'zbekistonda faqat qora marjondaraxt (*Sambucus nigra*) uchraydi. Bog'larda, xiyobonlarda va ko'chalarda manzarali o'simlik sifatida o'stiriladi. Bo'yi 2-7 metrga yetadigan buta yoki daraxt. Barglari cho'zinchoq-oval shaklda. Gullari sarg'ish-oq, xushbo'y, mayda, tikansimon gultojga ega. Mevasi qora-binafsha rangli, suvli, rezavorga o'xshash meva, 2-4 urug'li.

O'rta asrlarda bu o'simlikdan ham dorivor, ham dekorativ, ham kosmetik maqsadlarda ishlatilgan. Qora marjondaraxt o'zining bejirim barglari va o'ziga xos mevalari bilan ajralib turadi. Qora marjondaraxti may oyidan iyun oyigacha gullaydi va mevalari sentabrgacha pishib, uzoq vaqt novdalarida turadi va ajoyib landshaftni hosil qiladi. Marjondaraxt mevasining qora quyuc rangi uning boy fenollik tarkibiga, xususan, antosiyaninlarga bog'liq. Tarkibida alkaloidlar, siyanogen glikozidlar kabi turli xil fitokimyoviy moddalar mavjud bo'lib, ular xom holda iste'mol qilinsa nojo'ya ta'sir ko'rsatishi mumkin. Gulining damlamasi shamollash kasalliklarida (laringit, bronxit, gripp) terlatuvchi dori sifatida qo'llaniladi. O'simliklar qiyo's gullaganda gul to'plami yig'ib olinadi, soya yerlarda quritiladi va sim g'alvirda elanib, gul bandidan ajratiladi.

Gulining damlamasi shamollash kasalliklarida terlatuvchi dori sifatida hamda jigar, buyrak, siydik yo'li va boshqa kasalliklarga davo qilishda qo'llaniladi.

Marjondaraxt gulidan damlama tayyorlash uchun og'zi yopiladigan idishga bir stakan qaynab turgan suv quyiladi, ustiga 10gr maydalangan guldan solib, bir soat damlanadi. Sovugandan so'ng, dokada suziladi. Damlama iliq holda kuniga 3-4 mahal bir osh qoshiqdan ichiladi. Marjondaraxt guli terlatuvchi, ich yumshatuvchi va tomoq og'riganda tomoqni chayish uchun ishlatiladigan yig'ma choylar tarkibiga kiradi. Iste'mol qilish mumkin bo'lmagan qizil marjondaraxt mevasidan farqli o'laroq, qora marjondaraxt mevasi iste'molga yaroqli rezavor meva hisoblanadi. U shirin va nordon tamga ega. Qora marjondaraxt mevasidan ba'zi mamlakatlarda murabbolar, sharbatlar, jele va marmelad ham tayyorlanadi. Slovakiya va Chexiyada gullaridan sirop tayyorlanadi. Ko'pincha vinochilik va pishiriqchilikda ham ishlatiladi.

Qora marjondaraxt juda ko'p dorivor xususiyatlarga ega. Qora marjondaraxt noyob o'simlik, chunki uning deyarli barcha qismlari dori sifatida ishlatiladi. Jumladan; gullari, mevalari, barglari, qobig'i, ildizi va shoxlari.

Qora marjondaraxt o'simligining dorivorlik xususiyatlari:

- Asab tizimini yaxshilaydi;
- Tanadagi ortiqcha suyuqlikni bartaraf qiladi;
- Diuretik ta'sirga ega;
- Degilminizatsiya va dezinfektsiyalash ta'siriga ega;
- Viruslar bilan kurashishga yordam beradi;
- Immunitet tizimini mustahkamlaydi;

- Oshqozon - ichak kasalliklarini davolaydi;
- Saraton xavfining oldini oladi;
- Endokrin tizimdagi muammolarni bartaraf qiladi;
- Bezgak, gepatit, artrit, revmatizm kasalliklarini davolashda yordam beradi;

Marjondaraxt o'simligi ovqat hazm qilish traktining faoliyatini normallashtiradi. Surunkali qabziyatdan aziyat chekuvchilar uchun marjondaraxt mevasidan tayyorlangan murabbolar tavsiya qilinadi. Bundan tashqari ortiqcha vaznlarni yo'qotishga yordam beradi. Olimlarning aniqlashicha bu o'simlik mevalari qon tomiridagi yog'larni eritish, ularning elastikligini yaxshilash, qon tomir devorlarini mustahkamlash va qon bosimini pasaytirishini aniqladilar. Marjondaraxt o'simligining kaloriya qiymati atigi 74 kkal ni tashlik qiladi, shuning uchun ham u ortiqcha vaznga olib kelmaydi.

Bundan tashqari bu o'simlik noyob kimyoviy tarkibga ega. Uning tarkibida askorbin kislota, rutin hamda karotin mavjud. Yog'da erydigan vitaminlardan A vitamini, suvda erydigan vitaminlardan esa C, B1, B2, B3(PP), B5, B6, B9 vitaminlari mavjud. Minerallardan kaltsiy, kaliy, temir, magniy, fosfor, natriy, rux, mis va selen kabi elementlar bor.

Pishmagan mevalar va barglarda benzaldegid, glyukoza va gidrosiyan kislotasiga parchalanadigan sambunigrin glikolizidlari mavjud.

O'simlikning gullari karotin, xolin, shuningdek tanin va kerosinga o'xshash elementlarning manbai bo'lib, bir qator organik kislotalarni, jumladan, sirka va olma kislotalarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, gullari tarkibida efir moylari, glikozid sambunigrin va etilizobutil mavjud.

Yosh novdalaridagi barglari tarkibida karotin va askorbin kislota, provitamin A, alkaloidlar, taninlar hamda efir moylari va aldegidlar ham uchraydi.

Ildizlarida taninlar, shuningdek saponinlar, po'stlog'ida esa xolin, betulin, triterpen birikmalari, efir moylari, metil efir, fitosterollar, organik kislotalar, qandlar, pektin va taninlar mavjud.

Tavsiya etilmaydi:

**X** Caprifoliaceae oilasiga mansub o'simliklarga allergiyasi bor insonlarga;

**X** Homilador va emizikli ayollarga;

**X** Oshqozon-ichak traktining o'tkir kasalliklari bilan hastalangan insonlarga;

**X** Enterokoliti bor insonlarga;

Har bir narsaning o'z meyor bo'lganligi kabi, bu butachada ham oz miqdorda bo'lsa ham zaharlilik xususiyati bor. Shuning uchun marjondaraxt preparatlarining miqdorini oshirmaslik lozim, aks holda u salbiy yon ta'sirlarga olib kelishi mumkin, jumladan: diareya, qusish va h.k.

Marjondaraxt preparatlari me'yoridan ko'p miqdorda qabul qilinsa, oshqozon-ichak traktining shilliq qavat yallig'lanishiga olib kelishi mumkin.

*Xulosa* o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida aytib o'tganimizdek, marjondaraxt manzarali o'simlik sifatida ham qadrlanadi. Ma'lumki bog'va ko'chalardagi manzarali va mevali o'simliklar yuqorida aytilgan xususiyatlardan tashqari havoni kislorodga boyitadi, uni chang va va turli zararli gazlardan tozalaydi, soya va salqinlik ato etadi, shamol tezligini pasaytiradi, ular tomonidan ajratilgan turli uchuvchi moddalar zararli mikroblarni o'ldiradi, efir moylari esa havoni xushbo'y bo'lishini ta'minlaydi. Shu sababdan ham mamlakatimizda marjondaraxt o'simligini ko'paytirish va uni o'stirish texnologiyalarini ishlab chiqarsak nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Холматов Х. "Дикорастущие лекарственные растения Узбекистана". Ташкент. 1964
3. Холматов Х. Махсумов Н.М. "Шамоллаш касалликларида ишлатиладиган доривор усимликлар" Тошкент Ибн Сино номидаги нашриёт. 1993
- 4."Flora Europaea Search Result"
5. RHS A-Z encyclopedia of garden plants. United Michael and Vikram: Dorling Kindersley.2008.
6. Clapham, A.R. Tutin, T.G and Warburg, E.F. 1968 EXCURSION Flora of the British Isles Second Edition Cambridge.